



Abdulla Qodiriyning hajv va felyeton janridagi mahorati.

Muqaddasxon Anvarova Xomidjon qizi

O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Qodiriyning hajv va felyeton janridagi ijodiy faoliyatini tahlil qilamiz. Shuningdek, ushbu janrlar orqali jamiyatning kamchiliklari, odamlardagi illatlar va muammolar kulgili va tanqidiy tarzda aks ettiriladi. Maqolada adibning eng mashhur hajv va felyeton asarlari tahlil qilinadi va mazmuniy xususiyatlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: hajv, felyeton, tanqid, muhokama.

Abdulla Qodiriy o'z ijodida hajv va felyeton janrlarini muvaffaqiyatli qo'llagan. Uning buturdagi asarlari jamiyatning turli qatlamlaridagi kamchiliklarni ko'rsatib, ularni tuzatishga qaratilgan. Hajv janri – zamona nohaqliklarni, kamchiliklarni tanqid qilish va masxara qilish usuli bo'lib, u orqali muallif o'zining ijtimoiy-siyosiy qarashlarini ifoda etadi. Felyeton esa asosan gazeta va jurnallarda e'lon qilinadigan qisqa, hajviy uslubda yozilgan maqola bo'lib, muayyan voqea yoki hodisani tanqid qilishga mo'ljallangan. Abdulla Qodiriy, o'z davrining ijtimoiy-siyosiy holatini chuqur tahlil qilgan yozuvchi sifatida, o'ziga xos yondashgan. Qodiriy asarlarida nohaqliklarni, mansabparastlikni, riyokorlikni va boshqa illatlarni ko'rsatib berishga intildi.

Uning yozgan asarlari zamonaviy o'zbek adabiyotining rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Abdulla Qodiriy ijodiy merosida qariyb saksondan ortiq katta–kichik hajviyalar o'z mavjud bo'lib asarlar, bir tomondan, kulgili va yengil ko'rinishi mumkin, lekin ichki ma'nosi chuqur va kitobxonni o'ylantiradi. Shuningdek, o'z



zamonasining qiyinchiliklarini ochib berish orqali o'quvchini fikrlashga undaydi va ijtimoiy o'zgarishlarga ilhomlantiradi. Uning asarlari bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega Qodiriyning "Kalvak Mahzumning xotira kitobi" va "Mehrobdan chayon" kabi hajviy asarlari o'z zamonasining ijtimoiy muammolarini yoritadi. Masalan, "Kalvak Mahzumning xotira kitobi"da yozuvchi mansabparastlik va riyokorlikni hajv orqali tanqid qiladi. Asarda Kalvak Mahzum ismli shaxsning turli yo'l bilan yuqori lavozimlarga erishish uchun qilgan harakatlari kulgili tarzda tasvirlanadi. Tanqid qilinuvchi obyektga qaratilgan kinoyaviy masxaralovchi yoki fosh etuvchi kulgi asarning badiiy vositalarini belgilaydi. Hajviy asarlarida voqeani bo'rttirib tasvirlash, mubolag'a va fantaziyadan keng foydalangan. Abdulla Qodiriyning "Biz kim va nimalardan qo'rqamiz?" maqolasi, hajv va feyletonga yaxshigina misol bo'la oladi. Bu asarda muallifning asosiy tanqid obyekti – insonlarning o'z haqiqatlariga yetishishdan qo'rqishi va jamiyatning ruhiy-intelektual mustaqilligini yo'qotishidir. U qo'rquvlar orqali boshqarilayotgan jamiyatning inqirozga yuz tutishini bashorat qiladi va ilm-ma'rifat, progressiv fikrlash orqali jamiyatni qayta qurish zarurligini ta'kidlaydi va maqolasida qo'rquvning turli ko'rinishlarini ochib beradi. U insonlarning zamon, sharoit va boshqa kishilar ta'sirida qanday qo'rqishlarini tahlil qiladi. Bu tahlillar orqali Qodiriy, bir tomondan, odamlarning zaif tomonlarini ko'rsatadi, ikkinchi tomondan esa, ularning bu qo'rquvlardan qutulish yo'llarini izlaydi. Maqolada yozuvchi o'z zamonasining ijtimoiy-siyosiy muammolarini ham yoritib beradi. Ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik va siyosiy zulmning insonlarga qanday ta'sir qilishini tasvirlaydi. Qodiriyning asosiy maqsadi bu muammolarni ochiqchasiga aytish va ularga qarshi kurashishni rag'batlantirish edi. "Biz kim va nimalardan qo'rqamiz" maqolasi o'z davrining muhim ijtimoiy-siyosiy asari sifatida ko'rilishi mumkin. U insonlarni chuqurroq o'ylashga, qo'rquvlari bilan yuzlashishga va ularni yengishga chaqiradi. Maqolada "qo'rquv" so'ziga yuzlanish orqali boshqa bir kesatqlar ham ifodalanganini ko'rishimiz mumkin. Yozuvchining bir necha satrlari, ulkan



mohiyatni chiqarib bergan. Ko'pincha jamiyatning o'zgarishi va taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan o'zgarishlarni ko'rsatadi. Bu maqola, asosan, xalqning siyosiy faoliyatsizligi va madaniy orqada qolganligini qoralaydi va ularni ongli tarzda rivojlanishga undaydi. Masalan: ta'lim, madaniyat va siyosatdagi muammolarni ochib berish orqali o'quvchini fikrlashga va muammolarga e'tibor qaratishga urg'u beradi. Maqolaning tub mohiyati insonlarning xurofot, bilim yetishmovchiligi va hukumatning bosimlariga qarshi qo'rquvlariga asoslanadi. Qodiriy insonlarni fikrlashga, o'zlari va jamiyatning taraqqiyoti uchun harakat qilishga da'vat etadi. U qo'rquvning asosiy sabablarini – johillik va noto'g'ri boshqaruvni tanqid qilib, jamiyatni erkin fikrlashga va yangicha dunyoqarashga chaqiradi. Gazeta va jurnallarda e'lon qilgan felyetonlarida jamiyatning aktual muammolarini ko'tarib, ularni o'ziga xos uslubda tanqid qiladi. Masalan, "Ko'knorchi" felyetonida narkomaniya va uning oqibatlarini haqida so'z yuritadi. U asarlarida jamiyatdagi korrupsiya, adolatsizlik va axloqiy muammolarni ochib beradi. Qodiriy, o'z zamonida sodir bo'layotgan voqealarni hazil va ironiyaga boy shaklda taqdim etib, o'quvchini tanqidiy fikrlashga undaydi. Adib yaratgan har bir asar yoki maqola bizni taffakur qilish bilan birgalikda ichki dunyoimizga yuzlanishga undaydi.

Xulosa

Abdulla Qodiriy o'zining hajv va felyeton janridagi asarlari orqali o'zbek adabiyotida o'chmas iz qoldirgan. Uning asarlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va o'zbek adabiyoti va madaniyati uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Abdulla Qodiriy o'zining hajv va felyetonlari orqali jamiyatdagi muammolarni ko'tarib chiqish va ularga jamoatchilik e'tiborini qaratishda muhim rol o'ynagan. Shu qatorda asarlari orqali nafaqat jamiyatning kamchiliklarini tanqid qilgan, balki ularni tuzatishga chaqirgan. Umuman olganda, Abdulla Qodiriy ijodi nafaqat zamonasining muammolarini ochib beradi, balki o'quvchini tanqidiy fikrlashga, jamiyatdagi noqulayliklarga qarshi turishga undaydi.



Inson ongi zaminiga tog'ridan tog'ri yetib boradigan ijodida bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan mavzularni yoritgan. Abdulla Qodiriy o'zining hajviyalari orqali o'zbek adabiyotida shu turdagi asarlarning boyishiga munosib hissa qo'shdi. Ularda qo'llangan xalq maqollarining mahorat bilan tanlanishi va asar mazmun mohiyatiga to'la-to'kis mos kelishi, adibning qanchalik mohir so'z ustasi bo'lganligini ko'rsatib bergan Qodiriy, shu tarzda, o'z san'ati orqali jamiyatni yaxshilash yo'lida hissa qo'shishga intiladi. Adolat, insoniylik qadriyatlari, odil hayot uchun mashaqqat bilan kurashgan Abdulla Qodiriyning o'chmas merosi, farovon jamiyatda yashashimizga sababchi desak ham bo'ladi. Uning butun faoliyati boshqa jadidlarimiz singari go'zal ma'rifatli jamiyat barpo etish bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov, Bahodir "Jadidlar" Abdulla Qodiriy [Matn]; risola-Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2022-160 b.
2. Yoqubov, M. "Abdulla Qodiriy ijodi".
3. Rahmonov, S. "O'zbek satira va felyeton adabiyoti".
4. Абдулла Қодирий. Биз ким ва нималардан кўрқамиз? (1923), [https://ziyouz.uz/matbuot/jadid-matbuoti/abdulla-qodiriy-biz-kim-va-nimalardan-qorqamiz-\(1923\)](https://ziyouz.uz/matbuot/jadid-matbuoti/abdulla-qodiriy-biz-kim-va-nimalardan-qorqamiz-(1923))
5. Internet resurslari va ilmiy maqolalar – jumladan, O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasining elektron versiyasi va ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar.